

**BO'LAJAK SHIFOKORLARDA YATROGEN MULOQOTDAN  
SAQLANISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING  
PEDAGOGIK MODEL**

**Safarova Nafosat Oybek qizi**

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti

O'zbek tili va adabiyoti, rus va ingliz tili kafedrası o'qituvchisi

E-mail: [safarova.nafosat@bsmi.uz](mailto:safarova.nafosat@bsmi.uz)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bo'lajak shifokorlarda yatrogen muloqotdan saqlanish kompetensiyasini pragmalingsvistik yondashuv asosida shakllantirishga qaratilgan pedagogik modelning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilingan. Ishda kompetensiyaviy, kommunikativ, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga yo'naltirilgan hamda bemorga yo'naltirilgan (patient-centered care) yondashuvlar integratsiyasiga asoslangan modelning maqsadli, mazmuniy, jarayonli, diagnostik va natijaviy komponentlari yoritilgan. Shuningdek, Medical English fanini o'qitish jarayonida pragmalingsvistika, tibbiy etika, tibbiy diskurs va kommunikativ psixologiya elementlarini integratsiyalashning pedagogik imkoniyatlari asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** bo'lajak shifokor, yatrogen muloqot, kommunikativ yatrogeniya, pedagogik model, pragmalingsvistik yondashuv, Medical English, tibbiy kommunikatsiya, pragmatik kompetensiya, kommunikativ kompetensiya.

**A PEDAGOGICAL MODEL FOR DEVELOPING FUTURE PHYSICIANS'  
COMPETENCE IN PREVENTING IATROGENIC COMMUNICATION**

**Abstract.** This article analyzes the theoretical and methodological foundations of a pedagogical model designed to develop future physicians' competence in preventing iatrogenic communication through a pragmalinguistic approach. The study presents the goal-oriented, content-based, procedural, diagnostic, and outcome components of the model, which is based on the integration of competency-based, communicative, learner-centered, activity-based, and patient-centered care approaches. Furthermore, the article substantiates the pedagogical potential of integrating elements of pragmalinguistics, medical ethics, medical discourse, and communication psychology into the teaching of Medical English. The proposed model is aimed at developing future physicians' professional communicative competence, pragmatic awareness, and ethical communication skills necessary for preventing communicative iatrogeny in clinical practice.

**Keywords:** future physicians, iatrogenic communication, communicative iatrogeny, pedagogical model, pragmalinguistic approach, Medical English, medical communication, pragmatic competence, communicative competence.

## **ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИИ ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ ЯТРОГЕННОЙ КОММУНИКАЦИИ У БУДУЩИХ ВРАЧЕЙ**

**Аннотация.** В данной статье анализируются теоретико-методологические основы педагогической модели формирования у будущих врачей компетенции предупреждения ятрогенной коммуникации на основе



прагмалингвистического подхода. Представлены целевой, содержательный, процессуальный, диагностический и результативный компоненты модели, основанной на интеграции компетентностного, коммуникативного, личностно-ориентированного, деятельностного и пациентоориентированного (patient-centered care) подходов. Кроме того, обоснованы педагогические возможности интеграции элементов прагмалингвистики, медицинской этики, медицинского дискурса и психологии общения в процесс преподавания дисциплины *Medical English*. Предлагаемая модель направлена на развитие профессиональной коммуникативной компетентности, прагматической компетенции и навыков этичного общения у будущих врачей, необходимых для предупреждения коммуникативной ятрогении в клинической практике.

**Ключевые слова:** будущие врачи, ятрогенная коммуникация, коммуникативная ятрогения, педагогическая модель, прагмалингвистический подход, *Medical English*, медицинская коммуникация, прагматическая компетенция, коммуникативная компетенция.

## Kirish

Bugungi kunda tibbiy ta'limning asosiy maqsadi nafaqat yuqori malakali klinik mutaxassisni tayyorlash, balki bemor bilan samarali, empatik va etik jihatdan maqbul muloqot olib borishga qodir shifokorni shakllantirishdan iboratdir. Jahon sog'liqni saqlash amaliyotida bemor xavfsizligini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida kommunikativ kompetensiya e'tirof etiladi. So'nggi yillarda kommunikativ yatrogeniya -- ya'ni shifokor nutqi yoki muloqot uslubi



sabab bemorda yuzaga keladigan salbiy psixologik holatlar -- alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmoqda. Shu bois bo'lajak shifokorlarda yatrogen muloqotdan saqlanish kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan pedagogik modelni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Pedagogik model -- bu ta'lim jarayonining maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari, pedagogik shart-sharoitlari, baholash mezonlari va kutilayotgan natijalar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni aks ettiruvchi ilmiy-metodik tizimdir. Mazkur model ingliz tilini kasbiy maqsadlarda o'qitish (English for Medical Purposes -- EMP) jarayonida pragmatik yondashuv asosida kommunikativ yatrogeniyaning oldini olish kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Pedagogik modelning asosiy maqsadi** bo'lajak shifokorlarda bemor bilan professional, etik, empatik va pragmatik jihatdan samarali muloqot olib borish, kommunikativ yatrogeniya xavfini oldindan baholash hamda uni bartaraf etishga xizmat qiluvchi kasbiy kompetensiyani shakllantirishdan iborat.

Mazkur maqsad quyidagi vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutadi:

- yatrogeniya va kommunikativ yatrogeniya mohiyatini o'rgatish;
- tibbiy diskursning pragmatik qonuniyatlarini tushuntirish;
- nutqiy aktlar nazariyasini tibbiy kommunikatsiyaga tatbiq etish;
- shifokor--bemor muloqotida xushmuomalalik strategiyalarini rivojlantirish;
- empatik muloqot madaniyatini shakllantirish;
- klinik vaziyatlarda kommunikativ qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.

## Modelning metodologik asoslari

Pedagogik model bir nechta ilmiy yondashuvlarning integratsiyasiga asoslanadi.

**Kompetensiyaviy yondashuv** zamonaviy ta'limning ustuvor metodologik yo'nalishlaridan biri bo'lib, unda ta'lim jarayoni faqat nazariy bilimlarni egallashga emas, balki ularni real kasbiy vaziyatlarda samarali qo'llash imkonini beruvchi kompetensiyalarni shakllantirishga qaratiladi. Mazkur yondashuvning asosiy maqsadi talabning muayyan fan bo'yicha bilimlarni o'zlashtirishi bilan cheklanmay, ushbu bilimlarni amaliyotda qo'llay olishi, muammolarni mustaqil hal qilishi, tanqidiy fikrlashi, qaror qabul qilishi va samarali muloqot olib borish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Shu bois kompetensiyaviy yondashuv ta'lim natijasini faqat bilimlar yig'indisi sifatida emas, balki kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishga xizmat qiluvchi integrallashgan sifatlar majmui sifatida talqin etadi.

Bo'lajak shifokorlarda yatrogen muloqotdan saqlanish kompetensiyasini shakllantirishda kompetensiyaviy yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki shifokor faoliyatida bemor bilan samarali kommunikatsiya o'rnatish, murakkab klinik vaziyatlarda to'g'ri nutq strategiyasini tanlash, bemorning psixologik holatini hisobga olish hamda kommunikativ xatolarning oldini olish faqat nazariy bilimlarga emas, balki shakllangan kasbiy kompetensiyalarga bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, tibbiy ta'limda talabalarga pragmatlingvistika, tibbiy etika, kommunikativ psixologiya va tibbiy diskurs nazariyalarini o'rgatish bilan bir



qatorda, ushbu bilimlarni klinik muloqot jarayonida qo'llash ko'nikmalari ham rivojlantirilishi zarur.

Kompetensiyaviy yondashuv doirasida bo'lajak shifokorlarda bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan bir necha kompetensiyalar shakllantiriladi. Avvalo, **kognitiv kompetensiya** talabanning yatrogeniya nazariyasi, tibbiy etika, bioetika, pragmatik lingvistik va tibbiy kommunikatsiya bo'yicha ilmiy bilimlarni puxta egallashini nazarda tutadi. **Kommunikativ kompetensiya** esa bemor bilan samarali muloqot olib borish, faol tinglash, savollarni to'g'ri qo'yish, axborotni tushunarli yetkazish, empatiya namoyon etish hamda ziddiyatli vaziyatlarni konstruktiv hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Kompetensiyaviy yondashuvning muhim tarkibiy qismi hisoblangan **refleksiv kompetensiya** esa talabanning o'z kommunikativ faoliyatini tanqidiy tahlil qilishi, yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlashi, bemor reaksiyalarini baholashi va o'z kasbiy rivojlanishini muntazam takomillashtirib borishiga xizmat qiladi. Refleksiya orqali bo'lajak shifokor o'z nutqining pragmatik samaradorligini baholashni va keyingi muloqotlarda yanada maqbul kommunikativ strategiyalarni qo'llashni o'rganadi.

Mazkur yondashuvni amalga oshirishda o'quv jarayonida Case Study, Role Play, Standardized Patient, OSCE, Problem-Based Learning, Discourse Analysis, Simulation hamda Reflective Journal kabi interfaol metodlardan foydalanish katta samara beradi. Ushbu metodlar orqali talabalar nazariy bilimlarni amaliy klinik vaziyatlarda sinab ko'radilar, shifokor--bemor muloqotini modellashtiradilar, kommunikativ xatolarni aniqlaydilar va ularni bartaraf etishning pragmatik

usullarini ishlab chiqadilar. Natijada ta'lim jarayoni bilimlarni passiv o'zlashtirishdan faol kasbiy faoliyatni modellashtirishga yo'naltiriladi.

Shunday qilib, kompetensiyaviy yondashuv bo'lajak shifokorlarda nafaqat tibbiy bilimlarni, balki samarali kasbiy muloqotni ta'minlovchi lingvistik, kommunikativ, pragmatik, etik va refleksiv kompetensiyalarni kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa shifokorlarning bemor bilan empatik, etik va pragmatik jihatdan maqbul muloqot olib borishiga, kommunikativ yatrogeniya xavfini kamaytirishga hamda tibbiy yordam sifati va xavfsizligini oshirishga imkon yaratadi. Zamonaviy tibbiy ta'lim nuqtai nazaridan kompetensiyaviy yondashuv shifokor shaxsini har tomonlama kasbiy tayyorlashning metodologik asosi sifatida e'tirof etiladi.

**Pragmalingvistik yondashuvda** til birliklarining muloqotdagi maqsadi, kommunikativ ta'siri va pragmatik samaradorligi asosiy o'ringa qo'yiladi. **pragmatik kompetensiya** shifokorning har bir nutqiy vaziyatda kommunikativ maqsadni to'g'ri belgilashi, illokutiv maqsadni anglay olishi, perlokutiv ta'sirni oldindan bashorat qilishi va bemorda salbiy psixologik holat yuzaga kelishining oldini oluvchi yumshatish (mitigatsiya) strategiyalarini qo'llay olishini ta'minlaydi. Aynan ushbu kompetensiya kommunikativ yatrogeniyaning oldini olishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

**Kommunikativ yondashuvda** talabalar real klinik kommunikativ vaziyatlarda faol ishtirok etish orqali o'rganadilar. Ushbu yondashuvda talabalar bilimlarni real yoki modellashtirilgan klinik kommunikativ vaziyatlarda faol

ishtirok etish orqali egallaydilar. Asosiy e'tibor shifokor--bemor muloqotini samarali tashkil etish va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratiladi.

**Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvda** ta'lim jarayonida har bir talabaning individual qobiliyati, o'quv ehtiyojlari va kasbiy rivojlanish xususiyatlari hisobga olinib, uning shaxsiy va kasbiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga sharoit yaratiladi.

**Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvda** nazariy bilim amaliy faoliyat orqali mustahkamlanadi. Talabalar nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar, klinik vaziyatlar, rolli o'yinlar va simulyatsiyalar orqali mustahkamlaydilar hamda kasbiy faoliyatga tayyorlanadilar.

**Patient-centered care konsepsiyasida** bemor shaxsiga hurmat, hamkorlik va empatiya asosiy tamoyil sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv bemorni davolash jarayonining faol ishtirokchisi sifatida e'tirof etadi hamda muloqotda hurmat, empatiya, hamkorlik va bemorning individual ehtiyojlarini inobatga olishni asosiy tamoyil sifatida belgilaydi.

Bo'lajak shifokorlarda yatrogen muloqotdan saqlanish kompetensiyasini pragmatik yondashuv asosida shakllantirishga qaratilgan pedagogik model o'zaro uzviy bog'langan oltita tarkibiy blokdan iborat bo'lib, ular ta'lim jarayonining maqsadi, mazmuni, texnologiyasi, pedagogik shart-sharoitlari, baholash tizimi hamda kutilayotgan natijalarini yagona tizim sifatida ifodalaydi.

Pedagogik modelning birinchi -- **maqsadli bloki** ta'lim jarayonining strategik yo'nalishini belgilaydi. Mazkur blokda bo'lajak shifokorlarda yatrogen muloqotdan saqlanish kompetensiyasini rivojlantirishning asosiy maqsadi, kasbiy

kompetensiyalar, kommunikativ kompetensiyalar, pragmatik kompetensiyalar hamda etik kompetensiyalar aniqlashtiriladi. Ushbu blok ta'lim jarayonining barcha bosqichlarini yagona maqsad sari yo'naltirib, kompetensiyaviy yondashuvning metodologik asosini tashkil etadi.

Modelning ikkinchi -- **mazmuniy bloki** tibbiy ingliz tili (Medical English), pragmatolingvistika, tibbiy diskurs, tibbiy etika, bioetika, kommunikativ psixologiya, deontologiya va madaniyatlararo kommunikatsiya kabi fanlarning integratsiyasiga asoslanadi. Mazkur blok doirasida talabalar yatrogeniya nazariyasi, kommunikativ yatrogeniya, nutqiy aktlar nazariyasi (Speech Act Theory), xushmuomalalik nazariyasi (Politeness Theory), Graysning kooperatsiya prinsipi (Cooperative Principle), SPIKES modeli, Calgary--Cambridge modeli, empatik kommunikatsiya hamda xavfli kommunikativ vaziyatlarning lingvopragmatik xususiyatlari bilan tanishtiriladi. Mazmunning bunday integratsiyasi talabalarda tibbiy kommunikatsiyaga kompleks yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

Pedagogik modelning uchinchi -- **jarayon (protsessual) bloki** o'quv jarayonini tashkil etish texnologiyalarini o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichda Case Study, Role Play, Simulation, Standardized Patient, OSCE, Video Analysis, Discourse Analysis, Critical Incident Analysis, Reflective Journal, Problem-Based Learning va Team-Based Learning kabi zamonaviy interfaol metodlardan foydalaniladi. Mazkur metodlar yordamida talabalar klinik vaziyatlarni tahlil qiladilar, shifokor--bemor muloqotini modellashtiradilar, yatrogen nutq namunalarini aniqlaydilar, ularni pragmatik jihatdan qayta ishlab chiqadilar hamda

o'z kommunikativ faoliyatini reflektiv tahlil qiladilar. Natijada nazariy bilimlar amaliy ko'nikmalarga aylantiriladi.

Modelning to'rtinchi -- **pedagogik shart-sharoitlar bloki** uning samarali amalga oshirilishini ta'minlovchi omillarni o'z ichiga oladi. Bunda xavfsiz kommunikativ muhit yaratish, autentik klinik materiallardan foydalanish, multimedia vositalari va videokuzatuv texnologiyalarini qo'llash, simulyatsion markazlardan foydalanish, interfaol o'qitish metodlarini joriy etish, muntazam refleksiya tashkil qilish, individual maslahatlar berish hamda samarali teskari aloqa (feedback) mexanizmlarini yo'lga qo'yish muhim pedagogik shartlar sifatida qaraladi.

Pedagogik modelning beshinchi -- **diagnostik bloki** shakllantirilayotgan kompetensiyaning rivojlanish darajasini baholashga xizmat qiladi. Baholash kognitiv, kommunikativ, pragmatik va refleksiv mezonlar asosida amalga oshiriladi. Kognitiv mezon orqali talabalarning yatrogeniya, tibbiy etika, pragmatika hamda nutqiy aktlar nazariyasi bo'yicha nazariy bilimlari aniqlanadi. Kommunikativ mezon faol tinglash, savol berish, tushuntirish, empatiya namoyon etish, neverbal muloqot va konfliktlarni boshqarish ko'nikmalarini baholashni nazarda tutadi. Pragmatik mezon talabani illokutiv maqsadni aniqlashi, perlokutiv ta'sirni oldindan bashorat qilishi, mitigatsiya strategiyalaridan foydalanishi hamda kommunikativ xavfni kamaytirishga qaratilgan nutqiy vositalarni tanlay olishini baholaydi. Refleksiv mezon esa talabani o'z kommunikativ faoliyatini tahlil qilishi, mavjud xatolarni aniqlashi, ularni bartaraf



etish yo'llarini ishlab chiqishi hamda kasbiy rivojlanishini muntazam baholab borish qobiliyatini ifodalaydi.

Pedagogik modelning oltinchi -- **natijaviy bloki** ta'lim jarayonining yakuniy mahsuli sifatida shakllanadigan kompetensiyalarni tavsiflaydi. Modelni muvaffaqiyatli amalga oshirish natijasida talabalar yatrogeniya nazariyasi va tibbiy etikani puxta o'zlashtirgan, pragmatik qonuniyatlarni tushunadigan kognitiv kompetensiyaga ega bo'ladilar. Shuningdek, ular bemor bilan samarali, empatik va etik jihatdan maqbul muloqot olib borish, axborotni aniq va tushunarli yetkazish, bemorning psixologik holatini hisobga olgan holda mos nutq strategiyalarini tanlash, kommunikativ xavflarni oldindan baholash hamda o'z kommunikativ faoliyatini mustaqil tahlil qilib, doimiy ravishda takomillashtirish ko'nikmalarini egallaydilar.

Mazkur pedagogik model ilmiylik, tizimlilik, izchillik, integrativlik, kommunikativlik, kompetensiyaviylik, amaliy yo'naltirilganlik, shaxsga yo'naltirilganlik, refleksivlik, kasbiy yo'naltirilganlik, madaniyatlararo muloqotga tayyorlash hamda empatiya va etik mas'uliyatni rivojlantirish tamoyillariga asoslanadi. Ushbu tamoyillar ta'lim jarayonining mazmuni va metodlarini belgilash bilan birga, bo'lajak shifokorlarda yatrogen muloqotning oldini olishga xizmat qiluvchi kasbiy-kommunikativ kompetensiyalarni tizimli va izchil shakllantirish uchun metodologik asos vazifasini bajaradi.

Mazkur model ilk bor pragmalingsvistika, tibbiy diskurs nazariyasi, tibbiy etika, kommunikativ psixologiya va English for Medical Purposes (EMP) metodikasini yagona pedagogik tizimda integratsiyalash orqali bo'lajak



shifokorlarda **yatrogen muloqotdan saqlanish kompetensiyasini** shakllantirishga qaratilgan. Model kommunikativ yatrogeniyaning oldini olishni alohida o'quv natijasi sifatida belgilaydi va uning kognitiv, kommunikativ, pragmatik hamda refleksiv komponentlarini rivojlantirish uchun maqsad, mazmun, metodlar, baholash mezonlari va pedagogik shart-sharoitlarning uzviy bog'liqligini ta'minlaydi.

Pedagogik modelni amaliyotga joriy etish natijasida bo'lajak shifokorlarda yatrogen kommunikatsiya xavfini aniqlash, uning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish va oldini olish bo'yicha zarur bilim, ko'nikma hamda malakalar shakllanadi. Talabalar bemorning psixologik holati, yoshi, madaniy xususiyatlari va individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda tibbiy axborotni aniq, tushunarli va etik jihatdan maqbul tarzda yetkazishni o'rganadilar. Shuningdek, ular turli klinik vaziyatlarda pragmatik va etik me'yorlarga mos nutq strategiyalarini tanlash, empatik hamda madaniy jihatdan sezgir muloqot olib borish, shifokor--bemor o'rtasida ishonchli kommunikativ muhitni yaratish kompetensiyasini egallaydilar. Modelni o'zlashtirish jarayonida talabalar klinik vaziyatlarda kommunikativ qarorlarni ilmiy asoslangan holda qabul qilish, nutqining perlokutiv ta'sirini oldindan baholash hamda o'z kasbiy muloqotini reflektiv tahlil qilib, uni muntazam takomillashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Natijada ular kasbiy faoliyatda samarali, empatik, pragmatik va deontologik jihatdan to'g'ri muloqot olib borishga tayyor bo'lgan malakali mutaxassis sifatida shakllanadilar.

Shu tariqa, mazkur pedagogik model nafaqat Medical English fanini o'qitish samaradorligini oshiradi, balki bo'lajak shifokorlarning kasbiy kommunikativ

kompetensiyasini rivojlantirish, bemor xavfsizligini ta'minlash va sog'liqni saqlash tizimida kommunikativ yatrogeniya holatlarini kamaytirishga xizmat qiluvchi kompleks ilmiy-metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

### **Xulosa**

Shunday qilib, bo'lajak shifokorlarda yatrogen muloqotdan saqlanish kompetensiyasini pragmatik yondashuv asosida shakllantirish zamonaviy tibbiy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Taklif etilgan pedagogik model kompetensiyaviy, kommunikativ, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga yo'naltirilgan hamda bemorga yo'naltirilgan (patient-centered care) yondashuvlar integratsiyasiga asoslanib, bo'lajak shifokorlarning kasbiy kommunikativ tayyorgarligini tizimli ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Modelning maqsadli, mazmuniy, jarayonli, pedagogik shart-sharoitlar, diagnostik va natijaviy bloklarining o'zaro uyg'unligi ta'lim jarayonining yaxlitligini ta'minlaydi hamda pragmatik, tibbiy etika, tibbiy diskurs va kommunikativ psixologiya bo'yicha nazariy bilimlarni amaliy kommunikativ faoliyat bilan uzviy bog'laydi. Natijada talabalarda yatrogen kommunikatsiya xavfini oldindan aniqlash, bemorning psixologik holatini hisobga olgan holda pragmatik va etik jihatdan maqbul nutq strategiyalarini tanlash, empatik hamda madaniyatlararo sezgir muloqotni amalga oshirish, shuningdek, o'z kasbiy kommunikativ faoliyatini reflektiv tahlil qilish kompetensiyalari shakllanadi.



Mazkur pedagogik modelni ingliz tilini kasbiy maqsadlarda o‘qitish (English for Medical Purposes) jarayoniga joriy etish Medical English fanining mazmunini boyitadi, uni faqat terminologik va grammatik bilimlarni o‘rgatish bilan cheklab qolmay, balki bo‘lajak shifokorlarni xalqaro tibbiy kommunikatsiya talablariga javob beradigan, kommunikativ yatrogeniyaning oldini olishga qodir, etik, empatik va pragmatik jihatdan yetuk mutaxassis sifatida tayyorlashga imkon yaratadi. Shu jihatdan, ishlab chiqilgan pedagogik model tibbiy ta’lim sifatini oshirish, shifokor-bemor munosabatlarini takomillashtirish va tibbiy xizmatlarning samaradorligi hamda xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiluvchi ilmiy-metodik asos sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Austin J. L. *How to Do Things with Words*. -- Oxford: Oxford University Press, 1962.
2. Searle J. R. *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. -- Cambridge: Cambridge University Press, 1969.
3. Grice H. P. *Studies in the Way of Words*. -- Cambridge, MA: Harvard University Press, 1989.
4. Brown P., Levinson S. C. *Politeness: Some Universals in Language Usage*. -- Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
5. Leech G. N. *Principles of Pragmatics*. -- London: Longman, 1983.



6. Mey J. L. *Pragmatics: An Introduction*. 2nd ed. -- Oxford: Blackwell Publishing, 2001.
7. Hutchinson T., Waters A. *English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach*. -- Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
8. Dudley-Evans T., St John M. J. *Developments in English for Specific Purposes: A Multi-disciplinary Approach*. -- Cambridge: Cambridge University Press, 1998.
9. Silverman J., Kurtz S., Draper J. *Skills for Communicating with Patients*. 3rd ed. -- London: CRC Press, 2013.
10. Baile W. F., Buckman R., Lenzi R., Glober G., Beale E. A., Kudelka A. P. SPIKES---A Six-Step Protocol for Delivering Bad News: Application to the Patient with Cancer // *The Oncologist*. -- 2000. -- Vol. 5, No. 4. -- P. 302--311.
11. World Health Organization. *WHO Global Patient Safety Action Plan 2021--2030: Towards Eliminating Avoidable Harm in Health Care*. -- Geneva: WHO, 2021.
12. Лурия Р. А. *Внутренняя картина болезни и ятрогенные заболевания*. -- Москва: Медицина, 1977.